XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI TA’LIM JARAYONIGA JORIY ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

To’rakulova Holida Ilhomovna
Jizzax shahar 29-sonli maktab Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi



Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta’lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoniga muvofiq, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, *O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish* hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PISA- The Programme for International Student Assesment (PISA) — o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur hisoblanib, dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o‘quvchi yoshlarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajalarini turli xil mantiqiy testlar ko‘rinishida baholashdan iborat yirik xalqaro loyihadir. Loyihaning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va maktab davrida egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazishdan iboratdir.

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti- IHTT (Organizatsion for Ekonomic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi. Tadqiqot ilk bor 2000 yilda o‘tkazilgan bo‘lib, har uch yilda bir marotaba o‘tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021 yili o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Aynan shu yilgi tadqiqotlarda O‘zbekistonning ishtiroki ko‘zda tutilmoqda.

PISA tadqiqoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:

- ta’lim sohasidagi eng yirik, keng ko‘lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;
- tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan 15 yoshli o‘quvchilar ishtirok etadi;
- tadqiqotda o‘quvchilarning “hayotga tayyorgarlik” darajasi, ya’ni ularning maktabda egallagan bilim va ko‘nikmalarini hayotda qo‘llay olish layoqati baholanadi;
- tadqiqotda o‘quvchilarning matematika, o‘qish (matnni tushunish), tabiiy yo‘nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha ma’lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to‘planadi.

O‘zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

✓ O‘zbekistonda umumta’lim maktablari bitiruvchilarining ta’lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash;

✓ Mamlakatdagi umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash;

✓ O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma’lumotlarni olish.

Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o‘tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan. Shuni inobatga olib, PISA savollaridan darslarda foydalanish mumkin. Masalan:

1- masala. Moddalar almashinuvi intensivligi (MAI) nafas olish, hazm qilish va qon aylanish tizimi uchun kerak bo‘ladigan energiya hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich 23°C haroratli xonada tinch va uyg‘oq yotgan odam uchun aniqlanadi. Quyidagi formula yordamida ayollardagi moddalar almashinuvi intensivligi (MAI) aniqlanadi.

MAI = 9.74m + 172.9p - 4.737b + 667.051

Bu yerda MAI - moddalar almashinuvi intensivligi, kilokaloriyalarda, m–tana massasi, kilogrammlarda, p–bo‘yning balandligi, metrlarda, b–yosh, yillarda.

Massasi 60 kg, balandligi 1,70 metr va yoshi 35 yil bo‘lgan ayollarda moddalar almashinuvi intensivligi darajasini hisoblang. Javobingizni eng yaqin butun songa yaxlitlang.

2- masala. Fuji tog‘iga ko‘tarilish. Yaponiyadagi Fuji tog‘i ―uyqudagi vulqoni bilan mashhur tog‘ hisoblanadi. Fuji tog‘i faqat 1 iyuldan 27 avgustgacha bo‘lgan davrda odamlar uchun ochiq. Taxminan 200 ming kishi hozirgi vaqtda Fuji tog‘iga chiqmoqda. O‘rtacha har kuni Fuji tog‘iga qancha odam ko‘tariladi?

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish uchun o‘tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish kerak. Biologiya fanidan keltirilgan namunadagi savollardan foydalanish darslarda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni
2. “O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo’llanmasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi Toshkent, 2019 yil
3. Shaxmurova G., Tog‘ayeva G. “Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” modulidan o‘quv-uslubiy majmua, Toshkent, 2018 yil
4. t.me/milliymarkaz
5. Saliyeva, N. (2021). THE ROLE OF RAISING THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 59-62).
6. Nadirova-Kazan, H. (2023, November). THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. In Next Scientists Conferences (pp. 22-25).
7. Jumanazarov, U. (2023). HISTORICITY IN UZBEK HISTORICAL FOLKLORE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 4(3).
8. Надирова, Х. (2020). ASPECTS OF CLASSROOM METHODS. Общество и инновации, 1(1/s), 269-271.